



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/2 (11)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining
2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan
o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy
nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin
bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*

Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*

Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*

Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*

Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*

Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*

Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*

Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*

Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*

Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*

Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли – *доктор психологических наук.*

Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*

Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*

Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*

Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

SOTSILOGIYA

Saydivalieva X.X., Kadirova T.J. Mehnat munosabatlarida kamsitish holatlarining oldini olish va gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy huquqiy jihatlari	4
Мусаева М.И. Гендерные различия в диагностике расстройства аутистического спектра.....	12
Inoyatova S.J. Oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari	17
Ilxamova Z. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroki	24
Zokirov S., Xusanova S. O'zbekistonda ta'lim davomiyligi: hududlar va jinslar bo'yicha farqlar, ularning sabablari.....	29

OILA VA JAMIYAT

Hojiyev R.B. Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli (Turkiya tajribasi misolida).....	35
Abduramanov X.X., Saxibov O.K., Rustamov J.I. Oilaviy ajrimlarning farzand tarbiyasiga ijtimoiy-psixologik ta'siri	40
Abdibosитov A. Huquqiy ong tushunchasining tarkibiy tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalar	46
Muhitdinova D. Huquqiy madaniyat yetishmasligi sababli kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish	51

PSIXOLOGIYA

Yangiboyeva D.R. Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari	56
Xusanov S. "Mehnat motivatsiyasi" tushunchasining ilmiy-nazariy o'rganilishi	63
Аскарова Г., Каримова Н. Социально-психологические особенности копинг-поведения среди молодежи	68
Nomozova R.O. Ilm-fan sohasida gender tenglikni rivojlantirishning psixologik aspektlari	75
Imonova M.B. O'smir shaxsi shakllanishida sibling maqomining psixologik ta'siri.....	80
G'ulomqodirov E.A. Psixologik nazariyalarda oilaviy zo'ravonlik tushunchasining talqini	85

PEDAGOGIKA

Qurbonova B.N. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish	91
---	----

DEMOGRAFIYA

Dusnayev Sh.E. O'zbekiston aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlili	96
--	----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Rabiyev B.B. Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Filippin tajribasi.....	102
--	-----



Hojiyev Rasulbek Boynazar o'g'li,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi

OILAVIY NIZOLARNI BARTARAF QILISHDA OILAVIY MEDIATSIYANING ROLI (TURKIYA TAJRIBASI MISOLIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli Turkiya tajribasi misolida o'rganilgan bo'lib, Turkiyada oilaviy mediatsiya institutining shakllanishi va rivojlanishining tarixi, huquqiy va ijtimoiy jihatlari tahlil qilingan hamda uni rivojlantirish uchun davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, mediatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarga qo'yiladigan talablar, oilaviy mediatsiyaning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan. Shuningdek, mazkur ishda oilaviy mediatsiya institutini O'zbekistonda rivojlantirish borasida Turkiya tajribasidan foydalanish mumkin bo'lgan jihatlari haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: mediatsiya, mediatorlik, oilaviy mediatsiya, oila, oila huquqi, oilaviy nizolar, Turkiya huquqiy tizimi.

Аннотация. В данной статье на примере опыта Турции изучается роль семейной медиации в разрешении семейных споров, анализируются исторические, правовые и социальные аспекты становления и развития института семейной медиации в Турции, а также описаны реформы, проводимые государством для его развития, требования к личности, конкретные аспекты семейной медиации. Также в данной работе упоминаются аспекты, которые можно использовать из опыта Турции по развитию института семейной медиации в Узбекистане.

Ключевые слова: медиация, медиация, семейная медиация, семья, семейное право, семейные споры, правовая система Турции

Annotation. This article, using the example of the Turkish experience, studies the role of family mediation in resolving family disputes, analyzes the historical, legal and social aspects of the formation and development of the institution of family mediation in Turkey, and also describes the reforms carried out by the state for its development, requirements for the individual, specific aspects of family mediation. This work also mentions aspects that can be used from Turkey's experience in developing the institution of family mediation in Uzbekistan.

Keywords: mediation, mediation, family mediation, family, family law, family disputes, Turkish legal system

Kirish. Oila Turk jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Mazkur norma Turkiya Konstitutsiyasida¹ belgilab qo'yilgan asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Turkiya Respublikasi uchun oilaning butunligini, ijtimoiy-ma'naviy

muhitni saqlash davlatning ustuvor vazifasidir. Bugungi kunda oilada yuzaga kelayotgan nizolarning soni kun sayin ortib borayotgani sababli er yoki xotin tomonidan sudga murojaat qilish holatlari o'sib bormoqda. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda Turkiyada 565 435 ta nikoh qayd etilgan bo'lsa, 171 881 ta

¹ Turkiya Konstitutsiyasi 41-modda: <https://www.anayasa.gov.tr/tr/mevzuat/anayasa/>

ajrim qayd etildi². Bundan ko‘rinib turibdiki, davlat ajrimlar sonini kamaytirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirishi zarur. Shu maqsadda bugungi kunga kelib Turkiyada oilaviy nizolarni bartaraf qilish bo‘yicha mediatsiya instituti rivojlanib bormoqda. Xususan, 2012-yil 22-iyunda kuchga kirgan “Huquqiy nizolarda mediatsiyani qo‘llash” 6325-sonli Qonuni bilan Adliya vazirligi tarkibida Mediatsiya bo‘limi o‘z faoliyatini boshlagan.

Maqsad va uni asoslash. “Mediatsiya instituti Turkiya uchun 2012-yilda boshlandi” degan fikrga borish no‘to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki nizolarni bartaraf qilish bo‘yicha ulkan tarixiy tajribaga ega bo‘lgan davlat haqida bunday fikr yuritish maqsadga muvofiq emas. Turkiya huquqiy tizimida mediatsiya amaliyoti hali yangi institut, biroq oilaviy-huquqiy nizolarning mediatsiyaga mos kelishi, ayniqsa, an‘anaviy mediatsiyada huquqiy tajribalar bilan bir qatorda umumiy hayotiy tajribaga asoslangan qarordir. Shu bois Turkiyada an‘anaviy mediatsiya keng tarqalgan. Quyida Turkiyada mediatsiyaning tarixan rivojlanishini ko‘rib chiqamiz.

O‘rta Osiyo hududida istiqomat qilgan turklar Turk xoqonligiga asos solishgan hamda davlat va jamiyat ishlarini boshqarish xuddi bizning mamlakatimizdagi singari mahallalar orqali amalga oshirilgan. Mahalla raislari va oqsoqollari kengashlari bugungi kungacha saqlanib qolgan va fuqarolarning muammolarini hal qilishda muhim rol o‘ynab kelmoqda. Biroq urbanizatsiya jarayonining tobora kuchayib borgani sayin aholi eski an‘anaviy boshqaruvdan ko‘ra ko‘proq zamonaviy boshqaruv usullarga binoan yashashni ma‘qul ko‘rmoqda. Shuni ham unutmaslik kerakki, 32 232 ta mahallaning barchasida ham zamonaviy boshqaruv emas, hali hanuzgacha an‘anaviy boshqaruvni, ya‘ni rais hamda oqsoqollar kengashida muammolarini hal qilishni xohlovchi aholi vakillari ham kam emas. Mahalla boshqaruvi oilaviy nizolarni hal qilishda muhim o‘ringa ega va minglab yillik tarixga borib taqaladi.

Usmonlilar imperiyasi davrida qozilar ham sudya, ham mediator rolini bajargan. Qozilar tomonidan sudda oilaviy nizolar shariat qonunlari asosida hal qilinar edi hamda tomonlar o‘rtasida murosani ta‘minlashga harakat qilib, oila birligini saqlashga ahamiyat berar edi.

1923-yilda Turkiya Respublikasining tashkil topishi bilan huquq tizimida katta islohotlar amalga oshirildi. Fuqarolik Kodeksi 1926-yilda Shveysariya Fuqarolik Kodeksiga asoslangan holda qabul qilindi. Oila huquqiga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar zamonaviy huquqiy me‘yorlar asosida tuzildi, ammo nizolarni hal etishning muqobil usullari, masalan, mediatsiya hali qonuniy tan olinmagan edi.

1980–1990-yillarda Turkiyada nizolarni hal qilishning muqobil usullariga qiziqish kuchaya boshladi. Bu davrda mediatsiya tushunchasi ko‘proq muhokama qilinib, turli loyihalar orqali amaliyotga tatbiq etila boshlandi. 1990-yillarning oxirida mediatsiyaning ahamiyati, ayniqsa, oiladagi zo‘ravonlik va ajrashish kabi masalalarda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta‘kidlana boshlandi.

2012-yil 22-iyundagi “Huquqiy nizolarda mediatsiya to‘g‘risida”gi 6325-sonli Qonuni qabul qilinishi bilan mediatsiya atamasi huquqiy tizimga rasman kiritildi. Mazkur qonun bilan mediatsiyaning huquqiy asoslarini, mediatorlarning vakolatlari va majburiyatlari belgilab berildi.

2012-yildan keyingi davrda oilaviy mediatorlik instituti oilaviy nizolarni hal qilishda ko‘proq qo‘llana boshlandi. Biroq bu hali majburiy amaliyot bo‘lmasa-da, sudlar va advokatlar hay‘atlari tomonidan tomonlarning oilaviy mediator xizmatidan foydalanish targ‘ib qilinib kelinmoqda.

Oilaviy mediatorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jamoat tashkilotlari ham o‘lkada faoliyat olib bormoqda. “Oilaviy mediatsiya jamiyati” bugungi kunda o‘zida professional mediatorlar, huquqshunos, psixolog, sotsiolog, shifokor va boshqa sohalarning malakali mutaxassislarni o‘zida jamlagan jamoat tashkiloti hisoblanadi. “Oilaviy mediatsiya jamiyati”da bugungi kungacha 1926 ta oilaviy nizolar mediatorlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va ularning aksariyati ijobiy natijaga erishgan³.

Adliya vazirligi va advokatlar kollegiyalari ko‘magida oilaviy mediatsiya bo‘yicha o‘quv va sertifikatlashtirish dasturlari tashkil etilmoqda. Oilaviy mediatorlarni tayyorlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda “Turkiyada nizolarni hal qilishning muqobil usullarini ishlab chiqish loyihasi” (Türkiye’de Alternatif Uyuşmazlık

² Turkiya statistika qo‘mitasining oilaviy ajrimlar haqidagi ma‘lumotlari: <https://data.tuik.gov.tr/Bulten/Index?p=Evlenme-ve-Bosanma-Istatistikleri-2023-53707>

³ “Oilaviy mediatsiya jamiyati” NNT internet sahifasi: <https://ailcarabuluculugu.org/medya/index.htm>

Çözüm Yollarının Geliştirilmesi Projesi) amalga oshirilib kelinmoqda⁴.

Mazkur loyiha doirasida nafaqat oilaviy mediatorlarni, balki nizolarni bartaraf qilish borasida alternativ yo'l sifatida qo'llanishi mumkin bo'lgan barcha ishlar uchun mediatorlarni tayyorlash nazarda tutilgan. Loyiha natijasi sifatida "Professional mediatorlikka kirish kitobi", "Umumiy mediatsiya kitobi", "Sudga asoslangan mediatsiya xizmatlari bo'yicha qo'llanma" va shunga o'xshash bir nechta kitoblar nashr qilingan.

Turkiyada mediator bo'lish uchun nomzodlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Turkiya fuqarosi bo'lishi.
2. Huquq fakultetini tamomlagan bo'lishi yoki chet el yuridik fakultetini tamomlab, Turkiyadagi huquq fakultetlari dasturlari bo'yicha yetishmayotgan kurslar uchun imtihonni ijobiy topshirgan va sertifikat olgan bo'lishi.
3. Jinoiy javobgarlikka tortilmaga bo'lishi.
4. O'z mutaxassisligi bo'yicha 5 yillik ish stajiga ega bo'lishi.
5. Terroristik tashkilotlarga aloqador bo'lmaslik.
6. Adliya vazirligi tomonidan o'tkaziladigan yozma imtihondan muvaffaqiyatli o'tishi va mediatsiya bo'yicha o'quv kurslarini tamomlagan bo'lishi zarur⁵.

Turkiyada oilaviy mediatorlik uchun alohida talablar belgilanmagan. Mediatorlar uchun belgilangan talablar oilaviy mediatorlar uchun ham amal qiladi. Mavzuga aloqador o'laroq oilaviy mediatorlik bilan shug'ullanish uchun, o'z navbatida, professional mediator bo'lish talab qilinadi, ya'ni hamma ham oilaviy mediatorlik faoliyatini amalga oshira olmaydi. Biroq oilaviy nizo faqat huquqiy nizo bo'lmagani singari uni bartaraf qilishda faqatgina huquqshunosning o'zi doimo ko'zlangan natijaga erisha olmasligi mumkin. Shuning uchun ham yuqorida ta'kidlangani singari jamiyatlar faoliyatini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, Turkiyada mediatorlik faoliyatidan foydalanganlik uchun Adliya vazirligi tomonidan alohida narx

⁴ Turkiya Adliya vazirligi mediatsiya bo'limi web sahifasi; <https://adb.adalet.gov.tr/Home/SayfaDetay/e-kitap26082020041817>

⁵ Şebnem A. ve Uzman B. Arabuluculuğa Giriş Kitabı. – Ankara 2023. – S. 6.

belgilangan bo'lib, barcha mediatorlar ushbu ko'rsatma asosida o'z xizmatlariga haq olishadi. Har yili yangilab boriladigan ta'riflar Adliya vazirligining saytida barchaga ochiq shaklda e'lon qilib boriladi. Masalan, 2024-yilda mediatorlik ishlarini ko'rishda har bir soha kesimida alohida narx belgilangan. Bunda ko'riladigan ishning moddiy manfaatdorlik darajasiga ko'ra ikki turga:

- ish predmeti pul bo'lgan;
- ish predmeti pul bo'lmagan turlarga ajratiladi.

Ish predmeti pul bo'lgan mediatorlik xizmatlari ishdagi umumiy pul miqdorining fozidan kelib chiqib belgilansa, ish predmeti pul bo'lmagan nizolarda har bir soati uchun aniq narx belgilanadi. Oilaviy nizolarni ko'rish uchun mediatorlarga quyidagi tartibda haq to'lanadi:

agar nizolashayotgan taraf ikki kishi bo'lsa, soatiga 520 lira;

agar nizolashayotgan taraflar uch kishidan besh kishigacha bo'lsa, soatiga 1100 lira;

agar nizolashayotgan taraflar olti kishidan o'n kishigacha bo'lsa, soatiga 1200 lira;

agar nizolashayotgan taraf o'n bir kishi va undan ko'p bo'lsa, soatiga 1300 lira haq to'lanishi kerak bo'ladi⁶.

Turkiyada oilaviy mediatorlik faoliyatidan, asosan, er-xotinlarni, ayniqsa, bolali er-xotinlarni ajratish yoki ajrashish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar, jumladan, bolalar va moliyaviy masalalar yoki sotib olingan mulk bo'yicha kelishuvga erishishga yordam berish uchun ishlatiladi⁷.

Turkiyaga xos bo'lgan va biz uchun ham begona bo'lmagan unashtirish jarayoni hamda unashtiruvning buzilishi natijasida yuzaga keladigan moddiy va ma'naviy nizolarni hal qilishda ham oilaviy mediatorga murojaat qilish holatlari ko'p uchraydi. Shu bilan birga, tomonlar nikohdan oldin tuzadigan shartnoma orqali shaxsiy huquqlari va ma'naviy qadriyatlarini ham himoya qilishlari mumkin bo'ladi. Biroq tomonlar nikohdan oldin tuzadigan shartnoma bilan o'z huquq va

⁶ Turkiya Adliya vazirligi mediatsiya bo'limi tomonidan e'lon qilingan mediatorlik ishlarini ko'rib chiqishning minimal miqdori ta'riflari. <https://adb.adalet.gov.tr/Home/SayfaDetay/2024-yili-arabuluculuk-asgari-ucret-tarifesi29122023022921>

⁷ Karabulut Y. Aile uyuşmazliklarında arabuluculuk Yüksek lisans tezi. – İzmir 2020. – S. 22.

majburiyatlarini (agar bu shaxsiy huquq va axloqni buzmasa) aniqlashtirishni xohlashlari mumkin. Bunday kelishuvlarga mediatorlik yo'li bilan erishish ham mumkin⁸.

Turkiya qonunchiligida oilaviy mediatsiyani qo'llash sohasiga oid alohida tartibga soluvchi normativ hujjat yo'qligi sababli masala 6325-sonli "Huquqiy nizolarda mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni⁹ doirasida tartibga solinadi. Mazkur qonunga ko'ra, tomonlar sudga da'vo qo'zg'atishdan oldin yoki da'vo jarayonida o'zaro nizolarni hal qilish uchun mediatsiyaga murojaat qilishlari mumkin.

Agar tomonlar sudga da'vo kiritish o'rniga nizoni mediatsiya yo'li bilan hal qilishga kelishib olsalar, ular birgalikda tanlanadigan mediator bilan jarayonni boshlashlari mumkin. Boshqa tomondan, agar mediator xizmatidan foydalanish to'g'risidagi ariza bir tomon tomonidan berilgan bo'lsa, mediator ariza berish taklifini boshqa tomonga yuboradi. Agar boshqa tomon o'ttiz kun ichida ijobiy javob bermasa, vositachilik taklifi rad etilgan hisoblanadi. Ijobiy javob berilsa, jarayon arizachi tomon tomonidan belgilanadigan vositachi bilan davom etadi.

Ikkinchi tomondan, taraflar ishni sudda ko'rish ko'rib chiqish jarayonida ham mediator xizmatidan foydalanishlari mumkin. Bu borada sudya tomonlarga bunday huquqqa ega ekanligini eslatib, ularni bundan foydalanishga chaqirishi mumkin. Agar da'vo qo'zg'atilganidan keyin taraflar birgalikda mediatsiyaga murojaat qilishlarini ma'lum qilgan bo'lsalar, ish ko'rish sud tomonidan uch oydan ortiq bo'lmagan muddatga qoldiriladi. Tomonlarning mediatorsda kelishishi yoki kelishmasligiga qarab sudlar ishni qayta ko'rib chiqishi yoki tugatishi mumkin bo'ladi.

Mediatorlik faoliyatini o'rgangan Turk olimlaridan Mustafa Özbek oilaviy mediatsiyani "Turk adliya tizimidagi nizolarni hal qilishning samarali alternativ yo'llaridan biri"¹⁰ deb e'tirof etadi. Umuman, turk olimlari oilaviy mediatsiyani erishish mumkin bo'lgan natijalariga ko'ra turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

⁸ Karagözoğlu, Nursen, Aile Uyuşmazlıklarında Arabuluculuğa Elverişlilik, Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi, Başkent Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2017.

⁹ "Huquqiy nizolarda mediatsiya to'g'risida"gi Qonun; <https://www.resmigazete.gov.tr/eskiler/2012/06/20120622-1.htm>

¹⁰ Mustafa Özbek. "Türk Yargı Sisteminde Çok Seçenekli Adliyeler". www.arabulucu.com

Birinchi farazga ko'ra, oilaviy mediatsiya tomonlar o'rtasida konflikt mavjudligini shubha ostiga qo'yadi va uning salbiy tomonlarini o'rganadi. Ushbu farazga ko'ra, nizo hayotning oddiy jarayonidagi juda oddiy holat bo'lib, har qanday vaqtda, har qanday joyda sodir bo'lishi mumkin. Agar u tizimning borishiga ta'sir etsa va qaror qabul qilish qobiliyatiga putur yetkazsa, u halokatli bo'lishi mumkin.

Ikkinchi faraz shundan iboratki, oilaviy mediatsiya tomonlarga taraflarning faktlarni, his-tuyg'ulari yoki muammolarini neytral uchinchi shaxs orqali osongina ochib berishga imkon beradi. Mediatsiyaning asosi o'zaro tushunish, hurmat va adolatdadir. Mediator ushbu jarayonning borishi uchun javobgar bo'lsa, tomonlar ham natijalar uchun javobgardir.

Uchinchi farazda tomonlarning kelajakdagi munosabatlarida mediatorlik yondashuvlari ham muhim ekanligi ta'kidlanadi. Shunga ko'ra, sog'lom jarayon va sog'lom kelajak sog'lom mediatorlik faoliyatiga bog'liq. Bu, ayniqsa, bolalar bilan bog'liq masalalarda muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchi faraz mediatsiyada asosiy narsa tomonlarning muammolarini bartaraf etish emas, balki ularning muammolariga umumiy yechim topish ekanligini qabul qiladi. Jarayon davomida tomonlar o'zlarining xatti-harakatlari yoki munosabatini vaqtincha o'zgartirishi mumkin, ammo tomonlar kelishuvga erishishida, ya'ni umumiy yechim topishda mediatorlik faoliyati muhim rol o'ynaydi.

Beshinchi yoki oxirgi taxmin shundan iboratki, mediatorlik janjal, shovqin yoki raqobatga emas, balki murosaga va uyg'unlikka qaratilgan bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, oilaviy mediatorlik oila a'zolari o'rtasidagi nizolarni hal etishda qo'llanadigan jarayondir¹¹.

Yakuniy qism. Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, oilaviy mediatsiya instituti Turk huquqiy tizimida endi shakllanayotgan, biroq jamiyat hayotida uzoq tarixga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bugungi kunda boshqacha ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Shunday bo'lishiga qaramasdan, insonlar, ayniqsa, oilada nizolar yuzaga kelishi holatlari tabiiy jarayon ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur institutni yanada rivojlantirish uchun davlat tomonidan amalga

¹¹ Cemre Atçeken. Türk hukukunda ağıle arabuluculuğu Yüksek lisans tezi. – Konya, 2021. – S. 80.

oshirilayotgan tizimli islohotlar, professional kadrlarning tayyorlanayotgani, sudyalari va advokatlar tomonidan oilaviy mediatorlik faoliyatini keng targ'ib qilinayotgani sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning rolini Turkiya tajribasi misolida tahlil qilar ekanmiz, "mazkur tajribadan biz nimalarni o'zimizga olishimiz mumkin?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Quyida O'zbekistonda tatbiq etilishi orqali oilaviy mediatsiyani rivojlantirish mumkin bo'lgan jihatlarni ko'rib chiqamiz:

Birinchidan, oilaviy mediatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni bir joyda jamlagan "Oilaviy mediatsiya jamiyati" singari jamoat tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatning ushbu jarayonda faol ishtirok etishiga erishish mumkin.

Ikkinchidan, sudyalari va advokatlarning nizolashayotgan tomonlarni oilaviy mediatorga

yo'naltirish va targ'ib qilish amaliyotini joriy qilish lozim. Sudlar tomonlarga mediatsiya jarayonining afzalliklarini tushuntirib, murosaga erishish uchun mediatsiyani tavsiya etishlari mumkinligini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilash lozim.

Uchinchidan, O'zbekistonda mediatsiyaning afzalliklari haqida aholining xabardorligini oshirish uchun targ'ibot kompaniyalari va axborot dasturlari tashkil etilishi mumkin. Mediatsiyaning afzalliklari haqida maktablar, universitetlar, jamoatchilik markazlari va ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlar berib borishni jadallashtirish kerak.

Umumiy qilib aytganda, oilaviy mediatsiya tomonlarning o'zaro o'z ixtiyoriga ko'ra kelishishini, muammoni vaqtincha hal qilishni emas, balki unga yechim topishni nazarda tutuvchi jarayon bo'lib, oilaviy mediatsiya orqali nizolarni hal qilishda sudlarga tushayotgan yuklamaning kamayishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Türkiye Cumhuriyeti Anayasası (1982) 2709, T.C Resmi Gazete Tertip: 5, Cilt: 22, Sayfa: 3.
2. Türk Medeni Kanunu (2001), T.C Resmi Gazete, 4721, 08 Aralık 2001.
3. Hukuk Uyuşmazlıklarında Arabuluculuk Kanunu Yönetmeliği (2012), T.C Resmi Gazete, 6325, 07 Haziran 2012.
4. Şebnem A. ve Uzman B. Arabuluculuğa Giriş Kitabı. – Ankara 2023. – S. 6.
5. Cemre Atçeken Türk hukukunda ağı arabuluculuğu Yüksek lisans tezi. – Konya 2021. – S. 80.
6. Karagözoğlu, Nursen, Aile Uyuşmazlıklarında Arabuluculuğa Elverişlilik, Yayımlanmamış Yüksek Lisans Tezi, Başkent Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, – Ankara, 2017.
7. Mustafa Özbek, "Türk Yargı Sisteminde Çok Seçenekli Adliyeler". www.arabulucu.com
8. Karabulut Y. Aile uyuşmazlıklarında arabuluculuk Yüksek lisans tezi. – İzmir 2020. – S. 22.
9. Huquqiy nizolarda mediatsiya to'g'risida"gi Qonun <https://www.resmigazete.gov.tr/eskiler/2012/06/20120622-1.htm>
10. Turkiya Adliya vazirligi mediatsiya bo'limi tomonidan e'lon qilingan mediatorlik ishlarini ko'rib chiqishning minimal miqdori ta'riflari <https://adb.adalet.gov.tr/Home/SayfaDetay/2024-yili-arabuluculuk-asgari-ucret-tarifesi29122023022921>
11. Turkiya Adliya vazirligi mediatsiya bo'limi web sahifasi <https://adb.adalet.gov.tr/Home/SayfaDetay/e-kitap26082020041817>
12. "Oilaviy mediatsiya jamiyati" NNT internet sahifasi <https://ailearabuluculugu.org/medya/index.htm>
13. Turkiya statistika qo'mitasining oilaviy ajrimlar haqidagi ma'lumotlari <https://data.tuik.gov.tr/Bulten/Index?p=Evlenme-ve-Bosanma-Istatistikleri-2023-53707>

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia

xalqaro ilmiy jurnali

международный научный журнал

international academic journal

2024/2 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga
pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun
ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O’.,
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.